



HUDUDLARDA CHAKANA SAVDO KORXONALARINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI

Shaynazrov Ravshan

Qarshi davlat texnika universiteti

ORCID: 0009-0007-5302-1736

ravshan16d19sh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada savdo korxonalarining rivojlanishi bozor konsepsiyasiga o'tishi ularning maqsadli funksiyalarini o'zgartirib yubordi va bu xo'jalik jarayonini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimida o'z aksini topdi. Bu maqolada chakana savdo korxonalari faoliyati, chakana savdo tizimini rivojlantirish omillari tahlil qilinadi. Chakana savdo tashkilotlarining marketing tadqiqotlari olib borildi.

Kalit so'zlar: xo'jalik ko'rsatkichlari, chakana savdo, rivojlantirish, savdo aylanmasi, omillar, ichki bozor, iste'molchi, korxonalar, marketing, onlayn do'kon.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ В РЕГИОНАХ

Шайназров Равшан

Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В статье рассматривается переход предприятий торговли на рыночную концепцию развития, что изменило их целевые функции, что нашло отражение в системе экономических показателей, характеризующих хозяйственный процесс. Проведен анализ деятельности предприятий розничной торговли, определены факторы развития розничной системы. Проведено маркетинговое исследование организаций розничной торговли.

Ключевые слова: экономические показатели, розничная торговля, развитие, товарооборот, факторы, внутренний рынок, потребитель, предприятия, маркетинг, интернет-магазин.

FACTORS AFFECTING THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF RETAIL ENTERPRISES IN THE REGIONS

Shaynazrov Ravshan

Karshi State Technical University

Abstract. In this article, the transition of trade enterprises to the market concept of development has changed their target functions, and this is reflected in the system of economic indicators characterizing the economic process. This article analyzes the activities of retail enterprises and the factors of development of the retail system. Marketing research of retail organizations was conducted.

Keywords: economic indicators, retail, development, turnover, factors, domestic market, consumer, enterprises, marketing, online store.

Kirish.

Chakana savdo bozor iqtisodiyoti sharoitida chakana savdo tizimi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki u aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, tovar va xizmatlarning erkin aylanmasini ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lovchi asosiy bo'g'in sifatida katta ahamiyatga ega. Mamlakatda aholi sonining ortib borishi, iste'mol madaniyatining o'zgarishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi va yangi texnologiyalarning keng joriy qilinishi chakana savdo tizimini yanada rivojlantirish zaruratini tug'dirmoqda.

Mintaqada chakana savdo tizimi nafaqat ichki bozorni tovarlar bilan ta'minlash, balki ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, hududiy iqtisodiyotni jonlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois, so'nggi yillarda ushbu tizimni modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, elektron savdo maydonlarini kengaytirish va iste'molchilar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimizda savdo xizmatlarini rivojlantirish yuzasidan iqtisodchi olimlar bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, G'ulomov (1992), Ruzmetovlarni (1998) kiritish mumkin. Ular o'z ilmiy ishlarida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish masalalariga, xizmatlar sohasini, jumladan, savdo xizmatlarini rivojlantirishga har tomonlama yondashganlar.

Abdukarimov (2011) asarlarida mamlakatimizda savdo iqtisodiyotining asosiy muammolari va savdo korxonalarining iqtisodiy rentabelligi va iqtisodiy samaradorligi savdoda bozor mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Reinartz (2011) global va globallashtayotgan chakana savdoda korxonalar duch keladigan muammolar asosan yetkazib berish bilan bog'liq bo'lib boshqa davlat firmalari o'rtasida yuzaga keladi. O'ziga xos milliy bozorlarning xususiyatlariga javob beradigan chakana savdo ehtiyojlari chakana savdo korxonalarining muvaffaqiyati uchun juda muhimligini ko'rsatgan.

Maxmatqulov, Sayfullayev, & Bobomirzayev, (2024) ilmiy izlanishlarida savdo xizmatlarining rivojlanish tendensiyasining asosiy ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlili takomillashtirish masalalari ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolada statistic, empirik, vaziyatli va komparativ tahlil usullari qo'llanilgan. Maqolada muammoning dolzarbligi vaziyatli tahlil orqali yoritib berilgan bo'lsa, istiqboldagi tahlil yordamida mintaqadagi chakana savdo korxonalariga ta'sir etuvchi omillar va istiqbollari ko'rsatilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda yurtimiz shaharlari hamda tumanlari markazlarida faoliyat yuritayotgan chakana savdo korxonalarida savdo madaniyati tobora rivojlanib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

- Savdo rastalarida keng va barqaror tovarlar xilma-xilligining mavjud bo'lishi;
- Xizmat ko'rsatish sifati; Mahsulot sifati va xavfsizligi;
- Narxlarning shaffofligi; Savdo infratuzilmasini rivojlantirish;
- Innovatsiyalarni joriy etish; savdo xodimlarining yuqori kasbiy mahorati, ularning xaridorlarga nisbatan xushmuomalali va e'tiborli bo'layotganligi; Mijozlar ehtiyojlarini hisobga olish.

Xududlardagi chakana savdo korxonalar tomonidan ishlab chiqargan maxsulotlarni samarali reklamasini o'tkazish uchun zamonaviy marketing xizmatlardan foydalanish hamda texnologiyalarni foydalanish vazifasi qo'yildi. Bugungi kunga kelib jamiyatning ko'plab sanoat

korxonalari o'zing onlayn reklamaga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda media-rejani amaliy ishlab chiqish fazifasi birinchi o'rinda turibdi. Yurtimizda chakana savdoning o'sish sur'atiga e'tibor beradigan bo'lsak sezilarli o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Chakana savdo hajmining o'sish sur'ati (yillik)

Respublika va viloyatlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	105	109	113	113,8	114,5	115,5	116,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	104,3	108,6	110,6	111,4	112,2	113,2	115,9
Andijon viloyati	106,8	110,9	108,9	109,7	108,4	108,4	112,9
Buxoro viloyati	104,9	111,5	115,5	108	106,2	106,2	110,9
Jizzax viloyati	109,9	111,1	115,1	109,7	107,6	107,6	107,4
Qashqadaryo viloyati	102,9	111,6	109,6	111,9	112,9	108,9	114
Navoiy viloyati	105,4	111,8	115,8	110,2	110,8	112,8	114,8
Namangan viloyati	105,2	115,5	120,5	113,3	108,3	109,3	112,4
Samarqand viloyati	106,4	107,3	108,3	109,5	111,9	112,9	115,2
Surxondaryo viloyati	102,1	108,3	112,3	112	108,3	108,3	111,8
Sirdaryo viloyati	106,9	109,3	116,3	103,7	106,7	106,7	109,4
Toshkent viloyati	97,1	100,6	118,6	109,8	110,9	110,9	114,6
Farg'ona viloyati	106,2	108,6	118,6	105,6	112,3	112,3	115,9
Xorazm viloyati	110,9	113,8	113,8	112,9	107,6	107,6	113,2
Toshkent shahri	103,6	112,6	120,6	111,8	114,5	114,5	114,9

So'nggi 7 yillik (2018- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

Respublika hududlarida savdo qilishning internet marketing va boshqa turlaridan samarali foydalanish davr talabi hisoblanadi. Internet orqali savdo qilish hozirgi paytda zamonaviy savdo qilish turi hisoblanadi. Iste'molchilar o'zlariga kerakli tovarlarni o'zlarining kompyuter, planshet va qo'l telefonlari orqali buyurtma berib sotib olishlari mumkin.

Chakana savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlari sohaga jalb etilgan barcha resurslardan, ayniqsa, mehnat resurslaridan samarali foydalanishi uchun real shart-sharoit yaratiladi.

Onlayin xizmatlar orqali savdoni joriy etishning dastlabki bosqichlarida yangi texnologiyalarni yaratish va qo'llash katta sarf-xarajatlar hisobiga amalga oshirilishiga qaramasdan, keyingi bosqichlarda sarf-xarajatlarga nisbatan daromadlar ancha tez sur'atlar bilan oshib boradi. Chunki onlayin savdoda an'anaviy savdoga nisbatan farqli o'laroq, keyingi qo'shilgan qiymat daromadliligining pasayib borish qonuni amal qilmaydi. Sanoat korxonalarida elektron muhit tizimi yaratish bilan bog'liq dastlabki amalga oshirilgan katta sarf-xarajatlar keyingi bosqichlar hisobidan qoplanadi. Natijada, savdo korxonalarining foydasi ko'payish tendensiyasiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ortiqcha zahiralalar to'planishining oldi olinadi, tovar zahiralari tanqisligiga barham beriladi. Bundan tashqari, savdo korxonalarida marketing bilan bog'liq shart-sharoitlar sezilarli darajada yaxshilanib, u bo'yicha sarf-xarajatlar qisqaradi.

Onlayin savdo aholi uchun ham qator afzalliklar beradi, iste'mol xarajatlari qisqarib, tovar xaridi bilan bog'liq vaqt tejaladi, tovarlarni izlab topish jarayonlari ancha tezlashadi, kunning istalgan vaqtida savdo do'konlariga talab bilan murojaat qilish va o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyati tug'iladi.

Onlayin savdo xizmatlarini rivojlantirish asosida kompleks xizmatlar ko'rsatuvchi ekotizim yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Ekotizimlar "yashil" iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi, barqaror rivojlanishning poydevori hisoblanadi.

Savdo sohasida raqamli transformatsiyalarning hal qiluvchi dreyverlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

1. **Elektron savdo platformalarining kengayishi**–onlayn-do‘konlar, marketplace’lar (masalan, OLX, ZoodMall, Wildberries) orqali savdo qilish imkoniyatining ortishi.

2. **Mobil texnologiyalar va ilovalar** – xaridorlar uchun qulay mobil ilovalar va xizmatlardan foydalanish (mobil banking, onlayn to‘lov tizimlari, delivery xizmatlari).

3. **Raqamli to‘lov tizimlari** – “Payme”, “Click”, “Apelsin” kabi onlayn to‘lov xizmatlarining ommalashuvi, naqd pulsiz hisob-kitobning kengayishi.

4. **Logistika va yetkazib berish tizimlarining avtomatlashtirilishi** – buyurtmalarni tezkor kuzatish, yetkazib berish xizmatlarining raqamlashtirilishi.

5. **Sun‘iy intellekt va ma‘lumotlar tahlili** – xaridor xulqini o‘rganish, marketing strategiyalarini takomillashtirish, personalizatsiyalangan xizmatlarni joriy etish.

6. **Bulutli texnologiyalar** – savdo korxonalarini uchun ma‘lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ulardan tezkor foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

7. **Ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo (social commerce)** – Facebook, Instagram, Telegram kabi platformalarda tovarlarni sotish va reklama qilish.

8. **Kiberxavfsizlik tizimlari** – onlayn savdo jarayonlarida mijozlarning ma‘lumotlarini himoya qilish va ishonchni mustahkamlash.

9. **Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va normativ-huquqiy baza** – elektron savdo, elektron imzo, soliq tizimida raqamlashtirish bo‘yicha yaratilayotgan sharoitlar.

Mintaqadagi chakana savdo korxonalarining rivojlanishi bevosita ichki bozor barqarorligi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi va tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga quyidagi omillar kuchli ta‘sir ko‘rsatadi:

Iqtisodiy omillar – aholining real daromadlari, iste‘mol savati hajmi, hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari chakana savdo hajmiga bevosita ta‘sir qiladi. Daromadlar o‘sishi bilan bir qatorda aholining xarid qobiliyati ortib, savdo tarmoqlarining kengayishi kuzatiladi.

Ijtimoiy-demografik omillar – aholining soni, demografik tarkibi, urbanizatsiya darajasi hamda iste‘mol madaniyatidagi o‘zgarishlar savdo tarmog‘ining faoliyati va rivojlanish sur‘atlarini belgilab beradi. Ayniqsa, yoshlar sonining ortishi yangi iste‘mol talablari va xizmat ko‘rsatish usullarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Texnologik omillar–raqamli texnologiyalar, elektron savdo platformalari, mobil ilovalar va to‘lov tizimlarining rivojlanishi chakana savdo samaradorligini oshirib, iste‘molchilarga qulaylik yaratmoqda. Shuningdek, logistika xizmatlarining modernizatsiyasi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari savdo jarayonlarini tezlashtirmoqda.

Xulosa va takliflar.

Mintaqada chakana savdo korxonalarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim omillaridan biridir. Ularning samarali faoliyati nafaqat aholiga sifatli va qulay xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydi, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Rivojlanishga ta‘sir etuvchi omillar qatoriga bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, iste‘molchilar talabining o‘zgarishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyoz va shart-sharoitlar, shuningdek, korxona rahbariyatining boshqaruv salohiyati kiradi.

Shuningdek, chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun xizmat ko‘rsatish madaniyati, innovatsion marketing yondashuvlari, mahsulot sifati va assortimentning kengligi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, ushbu omillarning uyg‘unlashuvi savdo tarmog‘ining barqaror rivojlanishiga, iqtisodiy o‘sish va aholining farovonligi ortishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Abdukarimov F.B. (2011) Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand: SamISI, 156 b.

Maxmatqulov, G. O., Sayfullayev, S., & Bobomirzayev, A. (2024). Savdo xizmatlarining rivojlanish tendensiyasi asosiy ko'rsatkichlarining ekonometrik tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 139-149.

Reinartz W. (2011) et al. Retailing innovations in a globalizing retail market environment //Journal of Retailing. –T. 87. –C. S53-S66.

Гулямов С.С. и др. (1992) Системный анализ эффективности производства в рыночных условиях. – Т.: "Мехнат".

Рузметов Б.Р. (1998) Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дисс. док. эк. наук. –Т.: - 39 с.